



№ 3 / 2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RNI

Mirzaev Otabek Khusanovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ta'lim jarayonida innovatsion metod va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnagan bolalarning maktabga tayyorgarligi, ularni ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi hamda maktab muhitiga moslashuv jarayonlari tahlil qilingan. Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda jismoniy, intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda o'quv jarayonining asoslari bilan tanishtirishning muhim jihatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar:

Maktabgacha ta'lim tizimi, maktabga tayyorgarlik, innovatsion metodlar, jismoniy tayyorgarlik, intellektual rivojlanish diagnostika va monitoring.

Аннотация.

В статье освещаются фундаментальные реформы, проводимые в системе дошкольного образования, важность использования инновационных методов и современных технологий в образовательном процессе. Также анализируется готовность детей, посещающих дошкольные образовательные учреждения, к школе, их умственное, физическое и социальное развитие, а также процессы адаптации к школьной среде. Выделены важные аспекты развития физических, интеллектуальных и социальных навыков и ознакомления с основами образовательного процесса при подготовке ребенка к школьному образованию.

Ключевые слова:

система дошкольного образования, подготовка к школе, инновационные методы, физическая подготовка, диагностика и мониторинг интеллектуального развития.

Abstract.

The article highlights the fundamental reforms being implemented in the preschool education system, the importance of using innovative methods and modern technologies in the educational process. It also analyzes the readiness of children attending preschool educational institutions for school, their mental, physical and social development, and the processes of adaptation to the school environment. Important aspects of developing physical, intellectual and social skills and introducing the basics of the educational process in preparing a child for school education are highlighted.

Keywords:

Preschool education system, preparation for school, innovative methods, physical training, diagnostics and monitoring of intellectual development.

Bilamizki, hozirgi kun davlat islohotlarining amalga oshirilishi bevosita maktabgacha ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tizimida qo'llash, boshqaruvning yangi usullarini joriy etish kabi jarayonlar jadal rivojlanmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalariga borgan bolalarning maktabga tayyorligi va ularning maktabga moslashishi ruhiy tomondan yengilroq bo'lib, o'quv materiallarni o'zlashtirishda ham qiyinchilikka duch kelmaydilar. Uy

sharoitida tarbiyalanib maktabga chiqqan bolalar esa o'quv materialini o'zlashtirishda ancha qiynalishadi. Bu maktabdagi jamoaga moslashishning va o'qishga qiziqishlarining past darajasi bilan namoyon bo'ladi.

Faoliyatning maslahat-diaagnostika yo'nalishi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- katta maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish xususiyatlari, uning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash;

- shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlarini aniqlash; bolaning sog'lig'i va rivojlanishidagi mavjud bo'ziliklar diagnostikasini o'tkazish va uni psixologik-pedagogik ta'riflash; bola rivojlanishining ijtimoiy vaziyat xususiyatlarini tahlil qilish;

- maktabga tayyorlash jarayonida bolaning rivojlanishini monitoring qilish. Maktabgacha ta'lim tizimining maqsadi - har bir bolaning sifatli va ommabop (ochiq) ta'lim olish huquqini ta'minlash.

Bu tizimda ta'lim oluvchilar uchun har hil rejim, ya'ni ota-onalar talabidan kelib chiqqan holda, vaqtni belgilash, bola rivojlanishini inobatga olish, iqtidor va yo'nalishlarni hisobga olish, imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus ta'lim talablarini inobatga olish va asosiy mezon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim - maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining muvofiqlashgan faoliyati. Bu jarayon ta'lim 6 mazmunini tanlashda, ta'lim vositalari, usullari va muloqot yo'llarini, umuman olganda, maktabgacha ta'lim mazmuni va jarayonini tanlashda namoyon bo'ladi. Bolani maktab ta'limiga tayyorlash - alohida e'tiborni talab etadigan o'ta muhim jarayondir. Bu bosqichda maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Maktabga tayyorgarlikning asosiy maqsadi bolani yangi sharoitlarga moslashishni ta'minlashdir. Bola o'zini ishonishi va yangi bilimlar olishga tayyor bo'lishi muhim. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish. Maktab hayoti faol va chidamlilikni talab qiladi. Muntazam jismoniy nagruzkalar bolaning tana qurilishini mustahkamlashga xizmat qiladi va o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida diqatini jamlashga yordam beradi.

2. Intellektual qobiliyatni rivojlantirish. Bolaning fikrini, xotirasini, e'tiborini va mantiqiy fikrini rivojlantirish muhim. Turli fandlar bo'yicha mashg'ulotlar uning axloqiy qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi va o'quvjarayoniga tayyorlanadi.

3. Ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish. Maktabda bolaga boshqa bolalar, o'qituvchilar bilan aloqaga kirish, jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish zarur bo'ladi. Shu bois bolaga muloqotni, emotsional intilishni va mustaqillikni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Mustaqillik ko'nikmasini shakllantirish. Bolada o'z ish kunini tashkil etishni, vazifalarni katta shaxslar nazoratsiz bajarishni va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal etishni o'rganishi kerak.

5. Maktab o'quv jarayonining asoslari bilan tanishish.

Bolaga maktab darsxonasining asosiy talablari, sinfdagi harakat qoidalari, mashg'ulotlar jadvali va boshqalar bilan tanishish lozim. Maktabga tayyorgarlikni oldindan boshlash va uni

bosqichma-bosqich va tizimli amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning o'rniga o'yinlar va rivojlantirish vazifalaridan foydalanish yaxshi.

Darxaqiqat, maktabgacha ta'lim tizimi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim bosqich hisoblanadi. Maktabga tayyorgarlik jarayonida diagnostika, manitorin va rivojlantiruvch faoliyatlar orqali bolaning qobiliyatlari va ehtiyojlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tizimli va maqsadga yo'naltirilgan ishlar bolalarning kelgusida maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusanovich M.O. (2024, November). Maktabgacha ta'lim muassasalarida tadbirkorlik madaniyatiga o'rgatish. In interdisciplinary innovation and scientific research conference (Vol. 3, No. 25, pp. 16-18).
2. Mirzayev O. (2023). Ertak-terapiyasi va tadbirkorlik madaniyati elementlarining integratsiyasini ta'minlashning metodik tizimi. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2 (25), 92-94.
3. Khusanovich M.O. Developing steam competencies in older preschoolers. <https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID
4. Mirzayev O.K. (2024). Historical and pedagogical aspects of the formation of elementary entrepreneurial skills of children in preschool education. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.
5. Мирзаев, О. Х. (2024, October). Педагог-перспективная профессия. in international scientific e-conference "Problems and prospects of digital transformation economies in the conditions of deepening integration processes of developing countries"-Kraków, Poland (Vol. 3, pp. 93-95).
6. Mirzayev O.X. (2024). Technologies for the use of animations in education of young school-age students. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(04).
7. Mirzayev O.X. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. Journal NX, 1, 265.
8. Мирзаев, О.Х. (2020). Воспитание профессионально-нравственных качеств у будущих молодых фермеров средствами отечественной литературы. Science and Education, 1(2), 508-513.
9. Mirzaev O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation, 1(B6), 125-130.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i> MEDIA TA'LIMNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RNINI VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	4
<i>Azizova Dilzaxon Mashrabovna, Gofurjanova Nilufarxon Kadirjon qizi</i> TALABALARNING O'QISH SAVODXONLIGIDA INTERPRETATIF TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	8
<i>Mirzaev Otabek Khusanovich</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RNINI	13
<i>Umnov Dmitry Gennadevich</i> DEVELOPMENT OF CHILDREN'S RESILIENCE TO ADVERTISING: PREPARING EDUCATORS TO ADDRESS THE ISSUE OF TARGETED MARKETING PRESSURE ON PRESCHOOLERS	16
<i>Гофуржанова Нилюфар Кадыровна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ	28
<i>Qodirbekova Zehaxon Jasurbek qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR VOZITASIDA KONSTRUKTIV TA'LIM MUHITINI YARATISH VA STEAM INTEGRATSİYASINI AMALGA OSHIRISH	32
<i>Turg'untosheva Hamidaxon Rahmatullo qizi</i> AUTIZM SPEKTRLI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA MOTIV VA EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH: HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIR MEKANIZMLARI	36
<i>Косимова Гуллола Муллажаноэвна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> УЧЕБНИКИ ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ АКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ДИЗАЙНУ	43
<i>Olimova Sarvinaz Mashrabjon qizi</i> DIZARTRIYALI BOLALARDA DISPRAXSIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI	47
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i> MONTESSORI METODINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSİYA QILISHNING ISTIQBOLLARI	51
<i>Abdukadirov Bobirmirza Baxodirovich</i> OLIV TA'LIM TALABALARINING AXBOROT-TANQIIDYI KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUN-MOHİYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI	54
<i>Bayjonov Furgat Baxramovich</i> TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINI TAKOMILLASHTRISH: DILA VA JAMIYAT INTEGRATSİYASI ASOSIDA	59
<i>Ismoilova Nilufarxon</i> KREATIVLIK VA TANQIIDYI FIKRLASH KONTEKSTIDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH	66
<i>Raxmanov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i> PEDAGOGIK PLATFORMA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNINI	70
<i>Bozorbayeva Mahira Shavkatbek qizi</i> INNOVATSION YONDASHUVLAR DROALI TARBIIYACHILARNING KASBIY O'SISHINI TA'MINLASH	77
<i>Matkarimov Jaxangir Salaydinovich</i> TABIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARIGA DOJIR	81

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<i>Аскарое Шакирджан Махмудович</i> ПРАВА ЖИВОТНЫХ В МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ	86
<i>Курбанова М.Т</i> КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕЧЕМЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ	96
<i>Abdusamatov Dzodbek Olimjon o'g'li</i> YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	100
<i>Odilov Kamiljon Furgatjon o'g'li</i> XORIJY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB QOLGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH	104
<i>Maksumova F.K</i> MADOMNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI	110
<i>Alisherova Zulfiya Talibdjanovna</i> O'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI	114

ANIQ VA TABIIY FANLAR

<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich, Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</i> FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA MIND MAPDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	118
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon ugli, Alijanova Charasay Muradjon qizi</i> EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING THROUGH A COMPARISON OF TRADITIONAL AND CASE STUDY METHODS	128
<i>L.S. Yunusov, F.Yu. Axmedov, M. Maxsudova, K.M. Turg'unbayeva</i> MUNTAZAM SPORTNING YENGIL ATLETIKA TURI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 14-16 YOSHDAGI BOLALARNING MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	139
<i>Zakirjanov Sarvar, Zaynabiddinov Ibrakhimjon</i> ON A LINEAR PURSUIT DIFFERENTIAL GAME IN R^n	147
<i>Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi</i> TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI	154
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon o'g'li, Karimova Masturaxon Turg'unali qizi</i> EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM MODEL	159
<i>Ashurova Gulchexra Dadajanovna, Matniyazova Hilola Xudaybergenovna</i> ARACHIS HYPOGAEA L. (YERYONG'OD) O'SIMLIGIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING TA'SIRI	172
<i>Nizamova Bashoratxon Begaliyevna, Abduhamidova Unaxon Ilhomjon qizi</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BOBURNOMA" MA'LUMOTLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI	177
<i>Axmedov Shavkatbek Baltabayevich</i> INTEGRATIV YONDASHUVNI - O'QUVCHILARDA O'QUV FANGA DID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	183
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon O'g'li, Ergasheva Fatimaxon Sadiqjon qizi</i> "DATTIQ JISMLARNING MEKANIK XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	188